

Adizova Nodira Baxtiyorovna
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti,
pedagogika fanlari doktori (DSc)

MUAMMOLI TA'LIM VOSITASIDA "ONA TILI O'QITISH METODIKASI" MODULINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada muammoli ta'lim vositasida "Ona tili o'qitish metodikasi" modulini takomillashtirish omillari yoritilgan. Unda muammoli ta'limning nazariy asoslari, uning ona tili ta'limidagi o'rni hamda ta'lim jarayonida talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuvini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, muammoli vaziyatlar yaratish orqali dars samaradorligini oshirish, talabalarning bilimlarni ongli o'zlashtirishini ta'minlash hamda metodik kompetensiyalarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari ona tili o'qitish metodikasini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Muammoli ta'lim, ona tili o'qitish metodikasi, modul, pedagogik texnologiyalar, muammoli vaziyat, ta'lim samaradorligi, mustaqil fikrlash, metodik kompetensiya

ФАКТОРЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МОДУЛЯ "МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ" В СРЕДСТВЕ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются факторы совершенствования модуля "Методика преподавания родного языка" на основе проблемного обучения. Анализируются теоретические основы проблемного обучения, его значение в процессе обучения родному языку, а также его роль в развитии самостоятельного мышления, аналитических и творческих способностей обучающихся. Особое внимание уделяется созданию проблемных ситуаций как средству повышения эффективности урока, осознанного усвоения знаний и формирования методических компетенций. Результаты исследования способствуют совершенствованию методики преподавания родного языка на основе современных педагогических подходов.

Ключевые слова. Проблемное обучение, методика преподавания родного языка, модуль, педагогические технологии, проблемная ситуация, эффективность обучения, самостоятельное мышление, методическая компетенция

FACTORS FOR IMPROVING THE MODULE "METHODOLOGY OF TEACHING MOTHER TONGUE" IN A PROBLEMATIC EDUCATIONAL TOOL

Annotation. This article discusses the factors for improving the module "Methodology of Teaching the Mother Tongue" through problem-based learning. The theoretical foundations of problem-based learning, its role in mother tongue education, and its significance in developing students' independent thinking, analytical skills, and creative abilities are analyzed. Particular attention is paid to the creation of problem situations as a means of increasing lesson effectiveness, ensuring conscious knowledge acquisition, and forming methodological competencies. The research findings contribute to the improvement of mother tongue teaching methodology based on modern pedagogical approaches.

Key words. Problem-based learning, mother tongue teaching methodology, module, pedagogical technologies, problem situation, learning effectiveness, independent thinking, methodological competence.

Hozirgi zamon ilmiy-texnika revolyusiyasi davrida izohli-illyustrativ ta'lim metodi tahsil oluvchilarning fikrlash qobiliyatini yetarli darajada rivojlantira olmaydi, ularni o'rganilayotgan

mavzu materialini puxta bilishlariga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantira olmaydi hamda fanga bo'lgan qiziqishlarini yuqori darajada shakllantira olmaydi. Shuning uchun ham 1960 - yilning boshlaridan boshlab, maktablarimizda ta'lim jarayonini jadallashtirish g'oyasi keng tarqalib, ta'limning yangi metodi - *muammoli ta'lim metodi* vujudga kela boshladi.

O'tkazilgan eksperiment va kuzatishlar natijasida ta'lim jarayonida tahsil oluvchilarning bilish faoliyatlarini jadallashtirish hamda ularning intellektual imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanish umumiy qonuniyatlari ishlab chiqildi. Bu qonuniyatlar quyidagilardan iborat:

1. O'rganilayotgan mavzu materiallari yuzasidan muammoli savollar sistemasini tuzish.

2. Tuzilgan muammoli savollar sistemasi asosida suhbat metodi orqali tushuntiriladigan mavzu materialini o'rgatish va uning tub mohiyatini ochib berish.

3. Muammoli savollar asosida izlanish xarakteridagi o'quv vazifalarini qo'yish.

Yuqoridagi bosqichlar asosida o'quv materialini tushuntirilganda tahsil oluvchilar o'zlari darrov tushunib yetmaydigan fakt va tushunchalarga duch keladilar, natijada o'rganilayotgan mavzu materialini bilan tahsil oluvchilar orasida muammoli vaziyat hosil bo'ladi.

Hozirgi zamon o'qitish metodikasida o'qitishga muammoli yondashish, muammoli o'qitish metodi, darsda muammoli vaziyatlar yaratish, darsda muammoli maqsadlarning qo'yilishi, muammoli masalalar, muammoli savollardan foydalanish alohida o'rin tutmoqda.

Muammoli o'qitish deganda, umumiy shaklda muammoli vaziyatlarni tashkil etish, muammoli vaziyatlarni yaratish (bunga tahsil oluvchilarning o'zlari sekin-asta o'rganib boradilar), muammolarni hal etishda tahsil oluvchilarga zaruriy yordam berish, topilgan yechimlarni tekshirish va nihoyat, olingan bilimlarni maxsus tizimga solish hamda mustahkamlashga yo'naltirilgan faoliyat kabi ishlar majmuasi tushuniladi.

Muammoli o'qitishning harakatlantiruvchi kuchi bu bilish va bilmaganlar orasidagi ziddiyatni hal etish, yangi materialni o'zlashtirishga bo'lgan zaruriyatdir.

Muammo bu kishilik jamiyatining rivojlanishi jarayonida to'plagan tajriba yordamida hal qilish mumkin bo'lmagan masalalar hisoblanadi. Muammoli o'qitish jarayonida u yoki bu tahsil oluvchi oldiga qo'yiladigan muammo nisbiy xarakterga ega bo'ladi, ya'ni, muayyan muammo bir tahsil oluvchi uchun muammo, ikkinchi tahsil oluvchi uchun esa muammo bo'lmazligi mumkin.

Muammoli metod o'zining tuzilmasiga ko'ra ancha murakkab bo'lib, tarkibiga quyidagilarni oladi:

- | | |
|----------------------|--------------------|
| 1) diologli; | 5) ko'rsatmalilik; |
| 2) evristik; | 6) algoritmlilik; |
| 3) nazorat qilish; | 7) monologli. |
| 4) dasturlashtirish; | |

Muammoli dars izlanuvchanlik, qisman izlanuvchanlik va amaliy metodlarni o'z ichiga oladi.

O'qitish va o'rganish metodlari esa izlanuvchanlik, qisman izlanuvchanlik va amaliy metodlaridan foydalanadi. Muammoli metodning xarakterli tomonlaridan biri shundaki, tahsil oluvchilar o'tilgan mavzularni umumlashtirish jarayonida muammoli vaziyat yuzaga keladi. Muammoli vaziyat to'rt bosqichga bo'linadi:

1. Tahsil oluvchilar bilimi bilan muammo orasidagi muhit garchand teng kuchga ega bo'lsa ham tahsil oluvchilarning uni hal qilish yo'lini tezda ko'ra bilmasligi natijasida yuzaga keldi.

2. Tahsil oluvchilar bilimini ma'lum darajada faollashtirish orqali muammoni hal qilish.

3. Tahsil oluvchilar bilimini faollashtirish bloki sodda bilimlar bilan to'ldirilishi orqali qo'yiladigan muammoni hal qilish.

4. Tahsil oluvchilar bilimini ma'lum tayyorgarlik asosida to'ldirib, ya'ni, adabiyotlardan foydalanish orqali muammoning hal qilinishi.

Muammoli vaziyatni hal qilish uchun oluvchilar tomonidan turli yo'nalishlar, gipoteza(versiya)lar yuzaga keladi. O'qituvchi jarayonga rahbarlik qilish uchun sodir bo'lgan gipotezalarning orasidagi muammoni qismlarga ajratishga yordam beradi va tahsil oluvchilarning fikrini ko'rsatilgan muammoni hal etishga yo'naltiradi. Bunda tahsil oluvchilar ma'lum yo'nalishni olgandan so'ng muammoni hal qilishga harakat qiladilar. Mazkur dars jarayonida

qo'yilgan muammoni hal qilish darajasi aniqlanadi va asoslanadi. So'ngra tahsil oluvchilarga mavzu yuzasidan misol, masalalar yechib ko'rsatilib, mavzu mustahkamlanadi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlarning kuchayishi o'z navbatida tahlilali vaziyatning tobora avj olishiga zamin yaratmoqda. Mana shunday bir sharoitda yoshlarimiz tarbiyasiga e'tibor qaratish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu haqda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Mamlakatimizda "jaholatga qarshi – ma'rifat" degan ezgu g'oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do'stlik kabi oliyjanob maqsadlarga xizmat qilishini targ'ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo'lishi"ni, ma'naviyat va ma'rifat ishini vatanparvarlik va vijdon ishi deb qarash kerakligini ta'kidlaydi." Mamlakatimiz ta'lim jarayonining eng katta yutug'i uning uzluksizligi va uzviyligidir. Ana shu ma'noda "yosh avlodni hayotga qat'iy e'tiqod va qarashlar ruhida, mentalitetimizga yot bo'lgan zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan umuminsoniy va milliy hamda qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, millatimiz va xalqimizga mansub bo'lgan bag'rikenglik, oliyjanoblik fazilatlarini shakllantirish – bosh vazifamizdir."

Bugun yurtimizda 100 dan ortiq oliy ta'lim dargohlari ertangi kun egalarini ta'lim-tarbiyalashga yo'naltirilgan. Viloyatlardagi universitetlarning filologiya fakultetida o'qiydigan bakalavr yo'nalishi talabalari garchi universitet maqomidagi oliygohni tugatishsa-da, asosan, o'rta umumta'lim maskanlariga, akademik litseylarga va kasb-hunar kollejlariga mutaxassis sifatida ishga boradi. Ularga 3-kursda o'qitiladigan "Ona tili o'qitish metodikasi" o'quv fanini o'qitish jarayonida talaba, ya'ni bo'lg'usi mutaxassis ta'lim sohasidagi innovatsion faoliyat asoslarini; ona tili fanini o'qitishda samara beradigan zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni; ona tili o'qitishda qo'yiladigan hozirgi zamonaviy talablarni bilishi ko'rsatilgan.

Ona tili fanining mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uzviyligi hamda izchilligini ta'minlash; ona tili darslarida zamonaviy ta'lim resurslaridan foydalanish; o'qitish mazmuniga oid so'nggi axborotlarni qayta ishlash, ularni umumlashtirish va o'quvchilarga o'z vaqtida yetkazish ko'nikmalariga, ona tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash; yangi talablar asosida darslarni tashkil etish malakalariga ega bo'lishi ko'rsatilgan. Shu bilan birga talaba mazkur fanni o'rganish jarayonida zamonaviy yondashuvlar hamda innovatsiyalardan kasbiy faoliyatda foydalanish; ona tili fani nazariyasi hamda uni o'qitish metodikasining so'nggi yutuqlari, fanning texnika va ishlab chiqarishga qo'llanishi bo'yicha tadqiqotlaridan xabardor bo'lish kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.

Tajribalar va tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, turli sotsial qatlamlarda, respondentlarning javoblarida nisbat turlichadir. O'sib kelayotgan yoshlarga erishilajak natijaning asosida qattiq mehnat yotishini, bunga qunt bilan erishilishini, o'z navbatida, bular halollik, kamtarlik, vatanparvarlik, bag'rikenglik, insonparvarlik zamirida bo'lsa, muvaffaqiyatlar barqaror bo'lishini mudom tushuntirib, shaxsiy namuna bo'lib borish lozimligini hayotning o'zi tasdiqlamoqda.

O'qitish jarayonida, xususan, ona tili ta'limi jarayonida grammatik tushunchalarni berish bilan kifoyalanilishi ko'p o'rinda o'zining salbiy natijalarini bermoqda. O'qitish metodikasida ham asosiy e'tiborni til qoidalarini yod olish, til hodisalarini tahlil qilish kabi nazariy bilimlarni egallashga qaratgandi. So'z boyligini oshirish, matn ustida ishlash asosida og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, uslubiyat masalalari ilmiy grammatizm soyasida qolib, ularga ikkinchi darajali vazifa sifatida qarash odat tusiga kirgandi. Faqat ta'limga e'tibor bo'lib, tarbiyaga 2-darajali ish sifatida qaralishi o'zining oqibatlarini ko'rsata boshladi. Ayrim shogirdlarning ustozlari oldida mashinaning oldiga o'tirishi, sigaret chekishi, tagdor ohangda so'zlashi, ba'zi yoshlarda hasad va takabburlikning kuchayib ketayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Darsga kirayotgan, ertaga reyting bali qo'yishi kutilayotgan ustozni hurmatlash, unga yo'l berish, ustozdan oldin salom berish tarbiya olganlikning bir ko'rinishi bo'lsa-da, bu semestrda saboq bermayotgan darg'a ustozlarni yo'lakda ko'rib-ko'rmaslikka olish, aniqrog'i, to'qnashib qolganda, birgina salomni ham kanda qilish kabi salbiy holatlar uchraydi.

Darhaqiqat, talaba yoshlarni tarbiyalash uchun ma'naviy merosimizning durdonalari hisoblanmish Mahmud az-Zamaxshariy, Alisher Navoiy va boshqa donishmand bobolarimiz asarlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mahmud az-Zamaxshariy asarlarida

kishilarni birovni achchiq va yomon soʻzlar bilan ranjitmaslikka chaqiradi. U til yarasi bitmas yara ekanligini “koʻpincha til bilan yetkazilgan jarohat qilich bilan yetkazilgan jarohatdan ogʻirroq”, deb taʼkidlaydi. Navoiyning “Arbain hadis”ida ham “Yaxshi soʻz sadaqa” deb yoziladi. Inson koʻngli har doim yaxshi soʻzning devonasidir. Bir-birimizga yaxshi muomala qilishimiz ana shuning uchun ham lozim boʻladi.

Yuqorida taʼkidlangan durdona fikrlardan til taʼlimida foydalanish talaba yoshlar maʼnaviyatini oshiradi. Talaba yoshlar bu buyuk ajdodlarimizning muqaddas eʼtiqodga sadoqatini ifodalagan asarlarini oʻrganar ekanlar, chin insoniy qiyofa qanday boʻlishi haqidagi tasavvurlari, dunyoqarashlari kengayadi. Zero, insoniylik fanini oʻrganish manbai hisoblangan maʼnaviy olam har bir davrda har turli jilolanishga moyilligini namoyon etayotgan zamona biz pedagoglardan ana shunday yondashuvni talab etadi. “Bu oʻrinda gap, eng avvalo, yoshlar va aholi oʻrtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyatini va milliy qadriyatlarini keng targʻib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish” asosiy vazifalardandir.

Odatda, oʻqituvchilardan oʻz talabasining nafaqat borliq toʻgʻrisidagi bilimlarini, balki, tafakkur vositasida anglab olgan bilimlarini ham roʻyobga chiqarish, ifodalab berishga oʻrgatish talab qilinadi. Bu oʻrinda tafakkurga nafaqat zohiriy olamning, balki, botiniy, ichki olamning ham inson miyasida umumlashgan, til bilan ifodalanadigan inʼikosi sifatida qarash joizdir. Taʼlim tizimida yozma ishlarning eng muhim va murakkab turlaridan hisoblangan inshoda talabaning aynan ana shu tafakkur bilan bogʻliq mustaqil fikrlash, nazariy bilimlarni egallash va hayotni kuzatishda hosil boʻlgan bilim, malaka, koʻnikmalarini ifodalash, taassurotlarini umumlashtirish, tahlil qilish, asoslash, xulosa chiqarish, ijodkorlik qobiliyatlari roʻyobga chiqadi.

Shuni ham taʼkidlash joizki, amaldagi reyting tizimi talablariga koʻra talabalar bilimini baholashning birmuncha tezkor va qulay usuli sifatida test sinovi koʻproq qoʻllanilishi tufayli matnga, matn tahliliga, ijodiy matn yaratishga, xususan, yozma ishlarning muhim turi hisoblangan inshoga eʼtibor ancha susaydi. Holbuki, koʻplab metodist olimlarimiz, xususan, taniqli rus tilshunosi Y.N.Karaulov til va shaxs masalalariga bagʻishlangan maqolasida “Har qanday matn ortida lisoniy tizimlarni egallagan muayyan shaxs turadi”, - degan fikrni alohida taʼkidlagan edi.

Darhaqiqat, til va shaxs munosabatlarini yoritib berishda eng muhim manba bu matndir. Zero, u tilning barcha sathlarini mujassam etuvchi nutqiy tuzilma boʻlishi bilan birga, soʻzlovchi (yozuvchi) shaxsining lisoniy kompetensiyasini oʻzida toʻliq namoyon etuvchi hodisa hamdir. Hozirgi ijtimoiy taraqqiyotning tezkor surʼatlarini ilgʻay oladigan, roʻy berayotgan hodisalarning mazmun-mohiyatini toʻgʻri idrok etishga qodir barkamol avlodni tarbiyalash vazifalarini amalga oshirishda taʼlim sohasida zamonaviy, ilgʻor pedagogik texnologiyalar muvaffaqiyatlarimiz garovi boʻla olishiga hech shubha yoʻq. Pedagog olimlar V.Ishmuhammedov va M.Yuldashevlarining taʼkidlashicha: “Oʻquvchilarni tarbiyaviy jarayonga jalb etish masalalariga bagʻishlangan zarur metodik tavsiyalar va maslahatlarni pedagogik kadrlarga yetkazish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.” Endilikda zamonaviy oʻqituvchi nazorat ishlarini olib borish jarayonida, ushbu bilim sohasida oʻqimishlilik darajasi va shaxs madaniyatining umumiy rivojlanish darajasini toʻlaqonli shakllantirib borishi darkor.

Talabalarning yozma va ogʻzaki nutqini rivojlantirish uchun matn ustida ishlash, ijodiy topshiriqlar berish, ilmiy uslubda berilgan matnlarni badiiy uslubga aylantirib yozish kabi bir qancha koʻrinishdagi topshiriqlarni mustaqil bajarishlari uchun berish mumkin. Bu topshiriqlar nutq oʻstirishga qaratilgan ijodiy yozma ishlarning eng murakkab va oʻta zarur turlaridan biridir. Talaba ilmiy tasvirni badiiy tasvirga aylantirar ekan, ilmiy nutqqa xos boʻlgan ifodalarni badiiy ifodalar bilan almashtiradi. Bu esa undan adabiy nutq meʼyorlaridan unumli foydalanishni talab etadi.

Kuzatuvlarimiz davomida ayrim oʻqituvchilar yuqorida keltirilgan talablar asosida taʼlim jarayonini toʻlaqonli olib bora olmayapgani aniqlandi. Masalan, Davlat (oʻzbek) tili hamda ona tili fanlaridan namunaviy oʻquv dasturlarida olib boriladigan nazorat ishlarining turlari boʻyicha maʼlumot berilmagani uchun yosh oʻqituvchilar oʻquvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olmagan. Nazorat ish turlaridan faqatgina, matn yaratish va test topshiriqlarini bajarish bilangina

chegaralanib qolishgan. Bu esa ular o'qitadigan o'quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalari to'laqonli shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Nazorat ishlarining bayon va insho kabi turlari, uning o'ziga xosligi bo'yicha esa talabalarining tassavuri sayoz. Sababi maktablarda mazkur jarayon bo'yicha ajratiladigan soatlar tobora kamayib bormoqda.

Talabalarning aksariyati so'z va uning ma'nolari ustida ishlay olish, so'zdan nutqda to'g'ri foydalanishni bilishmaydi va, eng achinarlisi, ularning so'z boyligi yetarli emas. Bunday holat talabalarining tafakkur bilan bog'liq mustaqil fikrlash, egallagan nazariy bilimlarini hayotda qo'llash, hayotni kuzatishda hosil bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalarini ifodalash, taassurotlarini umumlashtirish, tahlil qilish, asoslash, xulosa chiqarish hamda ijodkorlik qobiliyatlari shakllantirilmayapti degan xulosaga olib keladi.

Ta'lim jarayonida nazorat ishlarining *"oddiydan murakkabga"* tamoyiliga asosan olib borilmasligi, talalar yozma va og'zaki nutqlarining shakllanishida ayrim muammolarni keltirib chiqaryapti.

Ma'lumki, bugungi kunda mamlakat oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlari testlar asosida amalga oshirilmoqda. Shuning uchun yoshlarimiz mavzuning anglab mohiyatiga yetishdan ko'ra savollarni yod olishni afzal bilishdi. Natijada yoshlarimizning og'zaki va yozma nutqining shakllanishida jiddiy muammolar vujudga keldi. Ularning yozma savodxonligi va nutqiy ko'nikmalari susayib, oddiy bitta jumlani ham talab me'yorlarida to'g'ri gapirish va yozishni bilmay qoldilar. Talabalarining ko'pchiligi yozgan ijodiy ishlarida, referatlarida, kurs ishlarida darslik mualliflari yoki o'quv-uslubiy majmuadagi fikrlarga yopishib olishadi.

Mavjud holatni o'rganish davomida talabalarining yozma ishlarida izchillik, aniqlikning yetishmasligi, xulosalar chiqarishni bilmasligi va reja bandlarining me'yorini bilmasligi aniqlandi. Buning asosiy sabablari ularning yozma ishini qanday bajarishni bilmasligi, o'z fikrini ifodalashga o'rganmagani, shaxsiy qarashlarining yo'qligidir. Yozma ishlarning ko'pchiligi ko'chirilgan bo'ladi.

Biz yuqorida ta'kidlangan holatlarning tub ildizlarini, sabablarini talabaga to shu bosqichgacha yetib keladigan jarayon, ya'ni o'rta umumta'lim maktablarida o'qitiladigan ona tili jarayonlaridan qidirdik.

O'rta umumta'limning davlat ta'lim standartlari talablari asosida yaratilgan takomillashtirilgan o'quv dasturlari, jumladan, Ona tili o'quv dasturida ona tili fani 5-9- sinflarda 646 soat hajmda, haftasiga 19 soat, shundan 5-sinfda 6 soat (hozirda 4 soatga tushirilgan), 7-sinfda 3 soat, 8-sinfda 3 soat, 9-sinfda 2 soat o'qitilgan.

Ona tili fanini chuqur o'rganishga ixtisoslashtirilgan maktablarning 5-9-sinflarida esa 986 soat, haftasiga 29 soat, shundan 5-sinfda 8 soat, 6-sinfda 7 soat, 7-sinfda 5 soat, 8-sinfda 5 soat, 9-sinfda 4 soatdan o'qitilgan. Shu o'rinda "Nutq madaniyati" yondosh o'quv dasturi ham har bir sinf uchun alohida berilgan.

Ona tili fani Davlat ta'lim standartida umumiy ko'rinishda berilgan tayanch kompetensiyalar A2 va A2+ darajaga ajratilgan. Har bir sinfning boshida o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan shu sinfga xos tayanch kompetensiya elementlari berilgan. Har bir sinfda o'rganiladigan bo'lim va mavzular nomlari hamda ularga ajratilgan soatlar ko'rsatilgan. Bunda har bir bo'lim mazmuni va fanga oid kompetensiyalar elementlari ochib berilgan.

Ona tili fanining xususiyatidan kelib chiqib, o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar elementlarining shakllanganlik darajasini aniqlash maqsadida nazorat ishi hamda o'quvchilar bilimini mustahkamlash, takrorlash soatlari ajratilgan. A2 va A2+ (9-sinf) yakunida o'quvchilarda shakllangan tayanch hamda fanga oid kompetensiyalar elementlari keltirilgan. Amaldagi o'quv dasturi va o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirish asosida ishlab chiqilgan o'quv dasturining qiyosiy tahliliga ko'ra 5-, 9- sinf dasturlarida umumiy 31, 2 % o'zgarish bo'lgan. Bunda 5-, 6-, 7-, 9-sinflarda takrorlash va mustahkamlash darslari hisobidan 4 soatdan "Matn" yo'nalishiga aloqador yangi mavzular va "Leksikologiya" bo'limiga 37 soat hajmda, 8-sinfda esa 2 soatga mo'ljallangan yangi mavzular kiritilgan. Shuningdek, 5-sinf o'quv dasturida "Morfologiya" bo'limiga amaldagi dasturda ajratilgan 40 soat 17 soatga, "Sintaksis" bo'limiga

ajratilgan 35 soat 17 soatga, "Fonetika" bo'limi 46 soatdan 33 soatga qisqartirilgan. Bunday qisqartirishlar o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishga ta'sir qiladi. Boz ustiga yangi qabul qilingan milliy dastur va darsliklarda grammatika soatlari bundan ko'p qisqartirilgan. Holbuki, ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi:

- o'quvchi shaxsini fikrlashga;
- o'zgalar fikrini anglashga;
- o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan

nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;

- o'quvchilarda grammatikaga oid bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) shakllantirish va rivojlantirish;

- ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o'qigan, ko'rgan, eshitganlarini nutqiy to'g'ri va ravon bayon eta olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish kabi katta talablardan iboratdir.

Xulosa. O'qitishdagi turli yondashuvlar borasida olib borilgan ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, davr tomonidan qo'yilayotgan yangi talablar bugungi kunda jahonning qator til ilmi ta'limida mustaqil ilmiy paradigma sifatida shakllanib ulgurgan, Kognitiv-pragmatik tilshunoslik yo'nalishlari bilan tanishtirish asnosida tilshunoslikda qo'lga kiritilgan eng so'nggi yutuqlar, til hodisalarini inson omili bilan bog'lab o'rganadigan kognitiv-pragmatik yondashuv tamoyillari va texnologiyalari borasida oliygohlarda ona tili ta'limidan saboq beruvchi professor-o'qituvchilar va talabalarga uning tamoyili, mohiyati, afzalliklari haqida ma'lumot berish ehtiyojini tug'dirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Morris C. (Eds.) International encyclopedia of unified science. Chicago: University of Chicago Press. 1938. Vol.2, bk 1.
2. Yule G. Pragmatics. Oxford, England: Oxford University Press. 1996.
3. Сысоев П.В. Лингвистический корпус, корпусная лингвистика и методика обучения иностранным языкам // Иностр. языки в школе. 2010. № 5. С. 12-21.
4. Коряковцева Н.Ф. Современная методика организации самостоятельной работы изучающих иностранный язык: учебное пособие. - Москва, 2002. - 176 с.
5. Рыков В.В. Прагматически ориентированный корпус текстов // Тверской лингвистический меридиан. Электронный ресурс. <http://rykov-cl.narod.ru/t.html>
6. Bouton L. F. (Eds.). Pragmatics and language learning. University of Illinois, Urbana-Champaign: Division of English as an International Language. 2001. Vol 10.
7. Сысоев П.В. Блог-технология в обучении иностранному языку // Язык и культура. 2012. № 4 (20). С. 115-127. 87. Сысоев П.В. Дидактические свойства и функции современных информационных и коммуникационных технологий // Иностранные языки в школе. 2012. № 6. С. 12-21.